

**TALABALARNI O'QUV JARAYONIDA PEDAGOGIK MULOQOT JARAYONIGA
TAYYORLASHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni o'quv jarayonida pedagogik muloqotga tayyorlashning dolzarbligi va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta'lim paradigmasi sharoitida pedagogik muloqot kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda pedagogik muloqotning lingvodidaktik, lingvometodik va kommunikativ komponentlari tahlil qilinadi hamda ularni shakllantirish yo'llari ko'rsatib beriladi. Trening mashg'ulotlari, mustaqil ishlar va maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat orqali talabalarda subyekt-subyekt munosabatiga asoslangan muloqot kompetentligini rivojlantirish mumkinligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik muloqot samaradorligi o'qituvchining professional yo'nalishi va kompetentligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot, pedagogik kompetentlik, lingvometodik tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiya, subyekt-subyekt munosabat, pedagogik texnika, kasbiy rivojlanish.

Аннотация. В статье рассматривается актуальность и значимость подготовки студентов к педагогическому общению в учебном процессе. В условиях современной образовательной парадигмы педагогическое общение интерпретируется как важный компонент профессиональной компетентности. Анализируются лингводидактический, лингвометодический и коммуникативный компоненты педагогического общения, а также раскрываются пути их формирования. Обосновывается эффективность тренингов, самостоятельной работы и специально организованной педагогической деятельности в развитии субъект-субъектных отношений. Результаты исследования показывают, что эффективность педагогического общения напрямую зависит от профессиональной направленности и уровня компетентности преподавателя.

Ключевые слова: педагогическое общение, профессиональная компетентность, лингвометодическая подготовка, коммуникативная компетенция, субъект-субъектные отношения, педагогическая техника, профессиональное развитие.

Abstract. This article examines the relevance and importance of preparing students for pedagogical communication within the educational process. In the context of the modern educational paradigm, pedagogical communication is interpreted as an essential component of professional competence. The study analyzes the linguodidactic, linguomethodological, and communicative components of pedagogical communication and identifies effective ways of developing them. It substantiates that training sessions, independent work, and specially organized pedagogical activities contribute to the formation of subject-subject interaction competence among students. The findings indicate that the effectiveness of pedagogical communication directly depends on the professional orientation and competence level of the teacher.

Keywords: pedagogical communication, professional competence, linguomethodological training, communicative competence, subject-subject interaction, pedagogical technique, professional development.

Kirish. Hozirgi xalqaro o'zaro bog'liqlik sharoitida ta'lim tizimi zimmasiga yuklatilgan eng dolzarb vazifalardan biri – bu mehnat bozori ehtiyojlariga moslasha

oladigan, raqobatda ustun va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir. Jamiyatning yuksalishi, fan va texnika taraqqiyotining jadallashuvi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining yangilanishi talabalar oldiga yangi-yangi mas'uliyatlarni qo'ymoqda. Endilikda oliy ta'lim

muassasalari faqat nazariy bilimlarni yetkazib berish bilangina cheklanib qolmay, balki talabalarni pedagogic muloqot jarayoniga kirishishini rivojlantirishni o'zining bosh maqsadi sifatida belgilab olgan.

Oliy ta'limning zamonaviy ta'lim paradigmasida hamkorlikka asoslangan yondashuv sharoitida muloqotni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Olimlarning fikricha, zamonaviy universitet bitiruvchisi nafaqat bilimli, murakkab muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechishga qodir bo'lishi, balki uning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo'lgan muloqot madaniyatiga ham e'tibor qaratishi lozim.

Muloqotchanlik majburiy ravishda uchta komponentni o'z ichiga olishi kerak: lingvodidaktik tayyorgarlikni shakllantirish (tilni ilmiy bilish), lingvometodik tayyorgarlik (muloqotning funksional registrlariga ega bo'lish), kommunikativ tayyorgarlik (barcha og'zaki va notijorat muloqotdan samarali foydalanish qobiliyati). Muloqotning turli sohalarida muvaffaqiyatli muloqotni amalga oshirish uchun og'zaki vositalar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. A.A. Bodalevning ta'kidlashicha, "pedagogik muloqot o'zaro ta'sir jarayoni sifatida o'rganiladi hamda axborot uzatish faqat muloqotning davom etishi uchun zarur shartdir. Pedagogik muloqotning ma'nosi o'zaro tushunishni o'rnatish, o'zaro aloqalarni amalga oshirish, pedagogik faoliyat subyektlarini ma'lum bir jamiyat ichida birlashtirishdir".

L.P. Buyevaning pedagogik muloqot borasidagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ko'rsatishicha, "pedagogik muloqot - faoliyat bilan o'zaro bog'liq, ammo unga o'xshash bo'lmagan hodisa sifatida talqin etiladi. Faoliyat va pedagogik muloqot jarayonning individual va ijtimoiy jihatdan uyg'un ikki o'zaro bog'liq tomonidir".

L.P. Buyeva pedagogik muloqot mazmuni va ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi munosabatlarni chuqur va har tomonlama tahlil qilish asosida muloqot bevosita kuzatiladigan va boshdan kechiriladigan jarayon degan xulosaga keladi. "Faoliyatning tabiati, mazmuni va tashkil etilishi orqali pedagogik muloqotga ta'sir qilish mumkin. Bu esa o'z navbatida pedagogik faoliyatga ta'sir qiladi. Bu pozitsiya talabalarning talabalar bilan muloqotga tayyorgarlik jarayonida faoliyatini tashkil qilish uchun muhimdir. YA'ni, maxsus tashkil etilgan faoliyat orqali pedagogik muloqot ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirish mumkin. O'z navbatida pedagogik muloqot faoliyat mazmuni va natijalariga ta'sir qiladi.

M.S. Kagan pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot o'rtasidagi munosabatlarga boshqacha yondashuvni taklif qiladi. U pedagogik muloqotni turli shakllarda amalga oshiriladigan inson faoliyati turi sifatida ko'radi. Pedagoglarning moddiy va amaliy faoliyatida, kundalik xatti-harakatlarida, turli ma'lumotlar almashinuvida va turli o'yinlarda va o'zaro ta'sirida. Muallif ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga qarab paydo bo'ladigan, o'zgaradigan va yaxshilanadigan faoliyatning tizimli tahlilini amalga oshiradi. Inson faoliyati "subyektning obyektlarga yoki boshqa subyektlarga qaratilgan faoliyati" sifatida ta'riflanadi. Shaxs subyekt sifatida, ma'lum vaziyatlarda esa faoliyat obyekti sifatida qoraladi".

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida talabaning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining eng muhim sharti uning professional muloqoti hisoblanadi, bu xususan pedagogik texnika ko'nikmalarining rivojlanganligini o'z ichiga oladi:

- nutq texnikasi asoslari va so'zli harakatlar texnikasini egallash;
- mimik va pantomimik ko'nikmalar, nutqsiz harakatlar texnikasini egallash;
- ruhiy holatlarni o'z-o'zini boshqarish texnikasi asoslari, ijodiy ish holatini yaratish usullari;
- aktyorlik va rejissorlik texnikasi elementlarini egallash.

Pedagogik texnika asoslarini o'zlashtirishning asosiy yo'llari – lingvometodik ko'nikmalar haqida axborot olish (ma'ruza), pedagogik harakatlar usul va qabullarini o'zlashtirish (trening), olingan bilim va ko'nikmalarni amalga oshirish (talabaning o'zi ustida mustaqil ishi)dan iborat.

Tahlil va natijalar. Shakllantirilayotgan ko'nikmalarining individual-shaxsiy xarakterini hisobga olgan holda, pedagogik muloqotni o'zlashtirish va uni takomillashtirishda yetakchi rol

trening va talabaning o'zi ustidagi mustaqil ishi o'ynaydi, bu ish o'qituvchining zarur kasbiy-shaxsiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan.

Pedagogik muloqot ko'nikmasini rivojlantirish bevosita lingvometodikaning imkoniyati hisoblanib, mazkur muloqot har doim ikki chambarchas bog'langan tomonni o'z ichiga oladi degan nuqtai nazarni qabul qilamiz:

“birinchidan, subyekt-obyekt sxemasiga asoslangan munosabat (unda sheriklarga aslida manipulyator va manipulyatsiya qilinadigan obyekt rollari beriladi - bu turli xil buyruqlar, ko'rsatmalar, topshiriqlar turidagi munosabat va h.k.), va ikkinchidan, subyekt-subyekt sxemasiga asoslangan munosabat”.

Ikkinchidan, “faoliyatni tahlil qilishda reproduktiv va produktiv ikki turdagi jihatlar va vazifalarni ajratish qabul qilingani kabi, rivojlangan munosabatda ham shunga o'xshash ikki tomonni ajratish tabiiydir”.

Uchinchidan, “rivojlangan to'laqon munosabat o'zida ikki o'zaro bog'langan, lekin jiddiy farq qiladigan darajani birlashtiradi: tashqi, xulqiy, operatsional - texnik daraja va ichki, chuqur daraja - u shaxsiy-ma'no hosilalariga ta'sir qiladi va tashqi, xulqiy darajaga nisbatan belgilovchi rol o'ynaydi”.

Pedagogik muloqotning tavsifini davom ettirib, yana bir holatni ta'kidlash zarurki, u munosabat tabiati bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, lekin bizni qiziqtirgan muammolar nuqtai nazaridan muhimdir. Biz talabalarning munosabat kompetentligini rivojlantirish muqarrar ravishda ikki tomonli jarayonni o'z ichiga olishini nazarda tutamiz. Bu bir tomondan, yangi bilimlar, ko'nikmalar va tajriba egalish, ikkinchi tomondan esa - allaqachon shakllangan tajribani boyitish, kengaytirish.

Lingvometodik bilimlar subyekt-obyekt shaklida rivojlanib, reproduktiv hosilalar ko'rinishida natija beradi. Produktiv, ijodiy tabiatga ega effektlar esa subyekt-subyekt kontakt shaklini amalga oshiruvchi psixologik ta'sir bilan bog'liq bo'lgani uchun ishtirokchilar o'rtasidagi subyekt-subyekt o'zaro ta'sirni muhimligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Lingvometodik tayyorgargarlik muloqotning ijtimoiy-perseptiv, kommunikativ va interaktiv jihatlarini ajratishga muvofiq ravishda munosabatdagi kompetentlikni rivojlantirish perseptiv, kommunikativ va interaktiv tarkibiy qismlarni rivojlantirish nuqtai nazaridan olib borildi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, pedagogning o'zini baholash uning talabalar bilan o'zaro muloqoti ta'siri xarakteri va o'ziga xosliklarini, shuningdek pedagogik kasbga munosabatini belgilaydi.

Pedagogik o'zaro ta'sir samaradorligi professional yo'nalish va professional kompetentlik darajasiga ham bog'liq. Past darajadagi kompetentlikka ega o'qituvchilar muloqotga shaxsiy ranglar bera olmaydi. Shunga muvofiq o'zaro ta'sir jarayonini dars rejasi va darslikka qat'iy bog'lab qo'yishga majbur bo'ladilar, improvizatsiyadan qochadilar, ba'zan dars qanday o'tayotgani uchun o'zlaridan mas'uliyatni butunlay olib tashlaydilar.

O'qituvchining pedagogik jarayonda muloqotga munosabatini o'zgartirish, u faqat didaktik maqsadlarga erishishni emas, balki talabalar bilan hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadigan butun bir kommunikativ vazifalar majmuini hal etishni ham nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bodalev A.A.. Psixologiya obshcheniya. – Moskva: Prosveshchenie, 1983.
2. Buyeva L.P.. Chelovek: deyatelnost i obshchenie. – Moskva: Mysl, 1978.
3. Kagan M.S.. Mir obshcheniya. – Moskva: Politizdat, 1988.
4. Leontev A.N.. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1975.
5. Zimnyaya I.A.. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2004.
6. O'zbekiston Respublikasi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.